

an'anaviy ommaviy axborot vositalarida javob - maqsadli auditoriya e'tiborini ushbu ma'lumotlarga jalb qiladi. Axborotni qonuniylashtirish sxemasi, agar u Internetda joylashtirilgan bo'lsa, an'anaviy ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarga qonuniy ravishda murojaat qilish imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, davlat boshqaruvi sohasida axborot - kommunikatsiya jarayonlarining o'rni juda muhim, chunki siyosat bu mohiyatan boshqaruvdir. Boshqaruvni esa boshqaruvchilar bilan qayta aloqani yo'lga qo'ymasdan samarali amalga oshirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. М. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига. – www.uza.uz. 2017 йил 27 июнь.
2. All you need to know about PR. PRCA. NY, 1986, p.2.
3. Зименков А.Б. Паблик рилейшнз в политике: Содержательный и технологический анализ. Ростов-на-Дону. 2003 г. // <https://lektsia.com/6xb852.html>.
4. Лебедева Т. Паблик рилейшнз. Корпоративная и политическая режиссура. М.1999. С.31.
5. Шишкина М.А. Паблик рилейшнз в системе социального управления. СПб. 1999. С.15.
6. Блэк С. Паблик рилейшнз. Что это такое. М.1990, С.32
7. The power of PR in politics // <https://www.mediaupdate.co.za/publicity/149696/the-power-of-pr-in-politics>

MEDIAMAKONDA BOLALAR UCHUN SAMARALI KONTENT YARATISH TAMOYILLARI

Nargiza MIRZAYEVA
O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

Annotatsiya. Bugungi kunda bolalar uchun mo'ljallangan samarali, qiziqarli, kreativ kontentlar tayyorlash o'zbek mediasi oldida turgan eng dolzarb va og'riqli muammolardan biridir. Shu ma'noda mazkur maqolada yosh kitobxonlar uchun mediamatn yaratishning o'ziga xos jihatlari, tamoyillari xususida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, bolalik davri, mediakontent, bola psixologiyasi, yosh kategoriyasi.

Ommaviy axborotlashuv jarayonida internet ko'pchilik zamonaviy odamlarning kundalik makoniga aylanib ulgurdi. Internet nisbatan qisqa vaqt ichida jamiyat hayotining barcha jabhalariga – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalarga kirib bordi. Zamonaviy mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar yangi axboriy dunyoni o'zgaruvchan, ijtimoiy hayotni beqaror munosabatlarga ko'ra tashkil etish shakllari deb atashadi. Axboriy jamiyatning o'zgarishi, insoniyatning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Hatto, bolalik davri, bolalikning “qiyofasi” ham zamonga moslashib, o'zgarmoqda. Yangi avlod vakillari media muhiti va reklama tomonidan shakllantiriladi, ular boshqa turdagi tafakkurga ega, ular bir vaqtning o'zida bir nechta ma'lumot manbalariga kirish imkoniyatiga ega va bir vaqtning o'zida ham real, ham virtual muhitda bo'la oladilar.

Avvalo, bolalikni o'zi nima? Bolalik – insonning shakllana boshlagan va kelajakdagi taqdiri ko'p jihatdan unga bog'liq bo'lgan davr. Bolalikda kelajak poydevori qo'yiladi. Shu bilan birga, u hayotning tabiiy, o'ta muhim va mutlaqo mustaqil qismidir. Bu davr hayotga tayyorgarlik vaqti bo'lib, insonning dunyoni kashf etishga kirishgan, taassurotlarga va yorqin, rang-barang voqealarga boy davridir. Bu davrda bolaning xarakteri shakllanadi, ichki qiyofasini belgilaydigan ma'naviy qadriyatlar strukturasi yaratiladi.

Fransuz yozuvchisi Antuan De Sent-Ekzyuperining yozishicha: “Inson bolaligidan kelib chiqadi”, ya'ni inson bolalikda kuzatgan muhim voqealar uning hayoti davomida ta'sir ko'rsatadi. Har bir voqelik yosh avlod tarbiyasiga ta'siri, ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyasi, dunyoqarashining shakllanishida bilinadi.

Bugungi globallashuv davrida aynan bolalar uchun mo'ljallangan samarali, qiziqarli, kreativ kontentlar tayyorlash o'zbek mediasi oldida turgan eng dolzarb va og'riqli muammolardan biridir.

Har qanday OAV faoliyatining samarasini ta'minlovchi omillardan biri – bu auditoriyani e'tiborga olishdir. Ma'lumki, bolalar OAVda retsipiyent – bolalar. Lekin

bolalarning o'sish davrida ularda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalarida bolalar rivojlanishining har bir davriga taalluqli o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Bolalar uchun yozilgan kitoblar ular dunyoqarashining, insoniy fazilatlarining shakllanishiga va fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bolalarning olam va odam haqidagi bilimlarini boyitib, lug'at boyligi oshishiga xizmat qiladi. Bolalar uchun mo'ljallangan har bir nashr, u jurnal bo'ladimi, gazeta bo'ladimi yosh kitobxonlarni turli mavzular, yozish uslublari va atamalar bilan tanishtirish orqali ularning savodxonlik ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Masalan, jurnallar darslik yoki maktab o'qishlaridan farqli o'laroq, ularga tabiat, hunarmandchilik va sportdan tortib, tarix, fan va texnologiyagacha o'zlarini qiziqtirgan mavzularni o'rganish imkonini beradi. Aynan nashrlar o'quvchilarga turli mavzularni baholash, savol berish va mulohaza yuritish imkonini beradi, shu bilan birga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar yoshiga mos matnlar bilan tanishadilar, bu ularga o'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishga yordam beradi. Shuning uchun ijodkor, yozuvchi yaratgan har bir materialni o'qish davomida bolalarni qiziqtirish uchun ularga mos va xos matnlarni yozish asoslarini bilish muhimdir. Chunki tarixiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonida bola ijtimoiy hayotda o'zini anglashi va shaxs sifatida tengdoshlari jamoasida o'z o'rnini topishi, shu bilan birga, kattalarning muhitida o'zini namoyon qilishida mediakontentlarning mazmuni, saviyasi, kreativligi, o'ziga xosligi juda muhim ahamiyatga ega.

Kattalarning madaniyatidan farqli o'laroq, bolalarning tug'yonli, his-hayajonli olami biror-bir amaliy foydali maqsadga xizmat qilish uchun yuzaga kelmagan. Bolalar – bu alohida dunyo, unda individning hayotiy tajribasi shakllanadi.

“Bolalar uchun yozilgan matn ularning yoshi, ruhiyati va tilni tushunish darajasiga muvofiq bo'lmas ekan, barcha harakatlar behuda ketaveradi. Chunki bolalar adabiyotida yosh kategoriyasini to'g'ri belgilash va matnning o'qishlilik darajasini aniqlash juda muhim. Negaki, biz 8 yoshli bolaga 12 yoshli bolaning kitobini tutqazayotgan bo'lishimiz mumkin. Bola bu kitobni o'qishga ham, tushunishga ham qiynaladi. Buning

chorasi - asarni 0+, 3+, 6+ kabi yosh kategoriyalari belgilanishi shart. Endi o'ylab ko'ring, bizda yosh kategoriyalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi? Muallif yoki muharrirning shaxsiy, subyektiv tajribasidan boshqa mezon yo'q. Aslida, buni belgilash uchun tilshunoslar ilmiy tadqiqot o'tkazishi, gap va matn qurilishining murakkabliklarini aniqlashi, turli yoshdagi bolalarda tajribalar o'tkazib, qaysi so'z qay yoshdagi bolaning tushunish darajasiga mosligini belgilab berishi zarur”.

Yosh kategoriyasining belgilanishi bolani kelgusida kitobga qiziqtirishda juda muhim. Uning yoshi va qiziqishiga mos bo'lgan, psixologik xususiyatlariga xos tarzda ilmiy-tadqiqot xulosalari asosida belgilangan mezonlarda aniqlanadi. Yoshni belgilashda xorijiy mutaxassislar tomonidan talab va mezonlar ishlab chiqilgan. Ijtimoiy loyiha sifatida yaratilgan va bolalaru kattalarni kitob yozishga ilhomlantiradigan Journey to Kidlit platformasi bolalar adabiyotining yosh chegarasini tasniflab chiqqan.

Masalan, 0–3 yosh orasi uchun kitobdagi so'z 100 tadan oshmasligi shart. Ba'zan kitob matn emas, suratlardan iborat bo'lishi ham mumkin. 3 – 8 yosh uchun 250 – 1000 ta so'zdan oshmagan asar talab etiladi. Bunda ham matndan ko'ra surat “so'zlashi”ga ko'proq urg'u qaratiladi. 5 – 9 yoshdagilar “ilk kitobxon” sanalib, ularga atalgani 1500 – 2000 ta so'z, 6 – 10 yosh uchun 8,5 – 12 mingta so'z bo'lishi kerak. 8 – 12 yosh orasiga 25 – 50 mingta so'zdan iborat asar yoziladi, odatda.

Mazkur platformada bolalar uchun yoziladigan nashrning g'oyasi, mavzusi, yozilishidan tortib, illustratsiya mezonlari ko'rsatilgan. Har bir bosqichda kontent yaratishda nimalarga e'tibor berilishi bayon etilgan.

O'zbekistonda ham bolalar uchun ana shunga o'xshash platformalar yaratilmoqda. “Mutolaa” loyihasi shular jumlasidandir. Bu loyihaning asosiy maqsadi - bolalar uchun asarlarni saralash, ularni ovozlashtirish va ilovaga yuklash. Bu loyiha orqali bolalar adabiyotidagi 3 ta katta muammoga yechim izlash. Birinchidan, bolalar matnlarining ilmiy metodlarga tayangan holda yosh toifalarini belgilash. Ikkinchidan, bolalar ijodkorlari maktabini yaratish. Uchinchidan, zamonaviy janrdagi kitoblarni chop etgan holda yurtimizda talab va taklif qonuniga asoslangan yirik bolalar adabiyoti bozorini

yaratish. Hozirda “Mutolaa” loyihasi qoshida yosh ijodkorlar, pedagoglar birlashib bu masalalar ustida ish ketmoqda.

E’lon qilinganiga 3 oy bo’lmasdan “Mutolaa” ilovasining foydalanuvchilari 400 mingdan oshdi. Ilovada o’qilayotgan kitoblarning umumiy soni esa 751 mingdan ortdi. Bir kunda o’qilayotgan kitoblar miqdori bo’lsa o’rtacha 15 ming atrofida.

Hozircha ilovada 1200 dan ortiq nomdagi kitob mavjud bo’lib, ular ichida “Uyg’onish” turkumidagi “Abu Ali ibn Sino” kitobi 24843 ta o’quvchi bilan birinchi o’rinni band qilib turibdi. Keyingi o’rinlarda: “Uyg’onish: Abu Rayhon Beruniy” (19879 ta), “Dunyoning ishlari” qissasi (20235 ta), “Dahshat” hikoyasi (12772 ta), “Navoiy” romani (11663 ta), “Temur tuzuklari” (11406 ta), “Galaktikada bir kun” qissasi (11107 ta), “Alkimyogar” qissasi (9528 ta), “Oltin zanglamas” romani (6770 ta), “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari“ romani (6490 ta), “O’tkan kunlar” romani (6200 ta) eng ko’p o’quvchilari bilan kuchli o’ntalikni egallab turibdi.

Kontentning kommunikativ ta’sirini kuchaytirish va uni bolalar auditoriyasi uchun mo’ljallangan materiallarda taqdim etishda bolalar rivojlanishining har bir davrga taalluqli o’ziga xos kognitiv, rivojlantiruvchi, ta’limiy, tarbiyaviy, intellektual va ijodkorlik salohiyatini shakllantiruvchi xususiyatlarni ifoda etuvchi maxsus axborot makonini yaratish samaradorligi bolalar nashrlarida e’tibor qaratilgan. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir.

Xorijiy bolalar nashrlarini kuzatar ekanmiz, globallashuv va axborot oqimining oshishi davrida bugungi bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda nashrlar chop etilmoqda. Masalan, AQSHda chop etiladigan, maynkraft o’yinini sevadigan 10 yoshdan kichik bolalarga mo’ljallangan mazkur jurnal o’z olamini yaratishda bolalarga ajoyib maslahatlar beradi. Minecraft World jurnali — bu o’yinni endi boshlayotgan yoki bu o’yin bilan avvaldan tanish bo’lib, unda labirint va noyob binolarga ega murakkab olamni yaratayotganidan qat’i nazar, boshlash uchun eng yaxshi nashrlardan biri. Dunyo bo’ylab boshqa o’quvchilarning ajoyib dizaynlari va olamlarini

namoyish etar ekan, Minecraft muxlislari jamoasi har bir sonda taqdim etish uchun ajoyib misollarni tanlab, keyingi o'yinlarini ilhomlantiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida nashr etiladigan va uzoq galaktikani o'rganishga mo'ljallangan bolalar uchun eng yaxshi jurnal "Lego Star Wars" sanaladi. Qiziqarli komikslardan tortib, ajoyib sovrinlarga ega mazkur jurnal xuddi boshqa dunyodan 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun har bir sonda jumboqlar, o'yinlar, komiksli hikoyalar, afishalar, tanlovlar va hatto muqovali Lego o'yinchoqlari bilan to'la. Jurnalda soatlab o'yin-kulgi qilish uchun ko'plab ajoyib va kreativ materiallar berib boriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bolalar adabiyoti va matbuot nashrlarida materiallarni bolalarga taqdim etishdan oldin o'zbek tilining izohli va imlo lug'atiga kiritilgan so'zlar (so'zlar banki)ni bolalarning yoshi, tushunish darajasiga muvofiq tarzda tasniflash, bolalar uchun yozilgan matnlarning o'qishlilik darajasini (readability) aniqlovchi, yosh kategoriyalarini belgilovchi va bunday matnlarni o'qib tushunishni baholovchi mezonlarni ishlab chiqish lozim. Menimcha, shundagina hozirgi kundagi eng og'riqli muammolarning yechimiga yo'l topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзаева Н. А. (2023). Болалар аудиториясига мўлжалланган журналистик асарларда коммуникатив-прагматик ёндашув. Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar xalqaro jurnali, (1).
2. Mirzayeva N. A. (2024, January). Zamonaviy bolalar nashrlarida sarlavhaning psixolingvistik aspekti va roli. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 242-245).
3. Quronov S. https://t.me/bolalar_yozuvchisi
4. <https://journeytokidlit.com/story-editing-services#last-call-timer>

GAZETA DISKURSI: VAZIFALAR VA KONSTRUKTIV TAMOYIL

Shahodat USMONOVA
O'zDJTU dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada gazeta diskursining keng ommaga, individual ong va xatti-harakatga axborot orqali ta'sir qilishi, muayyan vazifalarni bajaradigan va o'ziga xos